

**“O‘ZKIMYOSANOAT”  
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**BUYRUQ**

115 -son

2024-yil 13 avgust

Toshkent sh.

**“O‘zkiyosanoat” AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalari (Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali)da tahsil olayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng faol innovator ayol” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son qarori hamda xotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shma tadbirlar dasturlari ijrosini ta‘minlash, xotin-qizlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli xotin-qizlarning ixtirochilik va innovatorlik darajasini aniqlash, xotin-qizlar orasida sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. “O‘zkiyosanoat” AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalari (Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali)da tahsil olayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng faol innovator ayol” tanlovi o‘tkazilsin.

2. “O‘zkiyosanoat” AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalari (Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali)da tahsil olayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng faol innovator ayol” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.



3. "O'zkimyosanoat" AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, Oliy ta'lim muassasalari (Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali)da tahsil olayotgan xotin-qizlar o'rtasida o'tkaziladigan "Eng faol innovator ayol" tanlovini o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Boshqaruv raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Abduraxmanova) hamda ishchi guruh tomonidan:

tanlov nizomi talablari asosida xodimlarni keng jalb etgan holda xolis va shaffof o'tkazilishi;

tanlov g'oliblari munosib rag'batlantirilishi ta'minlansin.

5. Matbuot xizmati (Eshbekov) tanlov va uning natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish choralari ko'rsin.

6. Ro'yxatga olish va ijro intizomini nazorat qilish bo'limi (Salixov)ga jamiyatning ushbu buyrug'ini tizim korxonalariga 1 kun muddatda yetkazish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu buyruqning ijro nazorati boshqaruv raisi o'rinbosari A.To'xtayev zimmasiga yuklansin.

**Boshqaruv raisi v.b.**



**R. Muxamedjanov**



**“O‘z kimyosanoat” AJ tasarrufidagi tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalari (Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali)da tahsil olayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng faol innovator ayol” tanlovi to‘g‘risida**

## **NIZOM**

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son qarori, xotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shma tadbirlar dasturlari ijrosini ta‘minlash, xotin-qizlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli xotin-qizlarning ixtirochilik va innovatorlik darajasini aniqlash, xotin-qizlar orasida sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish, ularning innovatsion g‘oyalarini, loyihalarini va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish maqsadida **“Eng faol innovator ayol”** tanlovini (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

### **II. TANLOVNING MAQSADI**

Tanlovning maqsadlari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlash;

- xotin-qizlarda kasblar va ixtisosliklarni chuqur o‘rganishga qiziqishni oshirish;
- xotin-qizlarning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini oshirish, ularni tanlagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyatiga tayyorgarlik salohiyatini yanada kuchaytirish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyat yaratish;
- har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan xotin-qizlarni aniqlash;
- korxonada mehnat qilayotgan iqtidorli xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular o‘rtasida intellektual jihatdan sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;
- xotin-qizlarni boshqaruv lavozimlariga tayyorlash, malakali ishchi-xodimlar zaxirasini shakllantirish, o‘zi tanlagan kasbga nisbatan hurmat va faxr tuyg‘usini shakllantirish;
- iqtidorli xotin-qizlarning kasbiy bilim darajasini aniqlash;
- xotin-qizlar orasida sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish;
- xotin-qizlarning innovatsion g‘oya, loyiha va texnologiyalarini hayotga tatbiq etish orqali ularning bandligini ta‘minlash;



- korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlarning ilmiy izlanishlar olib borishlari kundalik ish jarayonining bir bo'lagini tashkil qilishi zarurligi bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;

- xotin-qizlarning tanlovga olib chiqayotgan innovatsion loyiha (energiya tejamkor, ekologik muammo yechimi, ishlab chiqarish jarayonlarini mukammallashtiruvchi, import o'rnini qoplovchi, korxonada harajatlarini tejavchi va korxonaga qo'shimcha daromad keltiruvchi) larini korxonada tatbiq qilish.

### III. TANLOV ISHCHI GURUHI, UNING TARKIBI VA VAZIFALARI

Tanlov doirasida kelib tushadigan ilmiy g'oyalar, innovatsion loyihalarni ko'rib chiqish bo'yicha Ishchi guruh tarkibi "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan tasdiqlanadi. Ishchi guruhga raislik qilish vazifasi boshqaruv raisi o'rinbosari darajasidagi rahbarga yuklatiladi.

Bunda Ishchi guruh raisi, zarur hollarda tor ixtisoslashuvdagi mutaxassislarni (shu jumladan, ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlar mutaxassislari) qo'shimcha ravishda ilmiy g'oya, ilmiy va startap loyihalarni ko'rib chiqish jarayoniga jalb qilishi mumkin.

- Ishchi guruh majlisi, unda Ishchi guruh a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi;

- Ishchi guruh tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi;

- tanlovni tashkillashtirishda, uni o'tkazish uchun homiylik qilishda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ishtirok etishi mumkin.

- tanlovning korxonasi yoki Oliy ta'lim muassasalari bosqichida korxonasi (Oliy ta'lim muassasa) rahbari yoki rahbari o'rinbosari boshchiligida hakamlar hay'ati korxonasi rahbarining buyrug'i asosida shakllantiriladi.

Tanlovni o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- tanlovning ustidan amaliy rahbarlik qilish uchun komissiyalar tuzish, uning tarkibiga tarmoq korxonalarining vakillarini kiritish, tanlovni baholash mezonlarida adolat va shaffoflik tamoyili bilan, haqli g'olibni aniqlashni ta'minlash;

- tashkil etilgan tanlov yakunlari bo'yicha natijalarni Nizomda belgilangan tartibda **g'olib ishtirokchilarning hujjatlarini, baholash varaqasi, tanlov bayonnomasi, fotoalbom va videolavhalarni** bir hafta ichida "O'zkimyosanoat" AJga taqdim etish vazifasini hakamlar hay'atiga yuklaydi;

- tarmoq korxonalari (Oliy ta'lim muassasalari) bilan birgalikda tanlov ishtirokchilari **xavfsizligini ta'minlash** bo'yicha choralar ko'rish, tanlov yakunida mehmonlar va ishtirokchilar uchun madaniy tadbirlar va g'oliblarni rag'batlantirish ishlarini amalga oshirish.



#### IV. TANLOVNI TASHKIL ETISH MUDDATI, O'TKAZISH TARTIBI VA APELLYATSIYA BERISH TARTIBI

##### **Tanlov shartlari.**

Tanlovda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan **50 yoshgacha** bo'lgan xotin-qizlar, shuningdek, Oliy ta'lim muassasalari, yani Toshkent kimyo-texnologiya institutida va D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida **3-4-bosqich** va **magistratura** bosqichida tahsil olayotgan talaba qizlar ishtirok etadi. Tanlov doirasida e'lon qilinadigan ilmiy-innovatsion loyiha mavzulari (o'z korxonasining moliyaviy modelini yaratish, yuqori energiya tejankor texnologiyalar samaradorligi, ekologik muammo yechimi, ishlab chiqarish jarayonlarini mukammallashtiruvchi, import o'rnini qoplovchi, korxonaga xarajatlarini tejoychi, xomashyo bazasi mavjud, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan hamda o'zini qoplaydigan loyihalar va korxonaga qo'shimcha daromad keltiruvchi innovatsion loyihalar), asoslangan takliflari, shuningdek, tijoratlashtirish imkoniyati mavjud yakuniy tayyor mahsulot/texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlari asosida shakllantiriladi. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

**I bosqich.** Loyiha taqdimoti. Bu shartda har bir korxonaga va Oliy ta'lim muassasalari o'zining tanlovini o'tkazadi. Tanlovda ishtirokchilar o'zlarining innovatsion loyihasi haqida qisqacha taqdimot qilib beradi. Taqdimotda loyihaning innovatsiyasi – yangiligi va dolzarbligi aniq yoritilishi zarur, so'ng loyiha bo'yicha savollar bo'ladi va ularga asoslangan javoblar beriladi. Savollar og'zaki tarzida beriladi.

**II bosqich.** Har bir korxonada va Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tanlovda hakamlar hay'ati g'olib deb topgan xotin-qizlar ro'yxatini hamda ularning loyihalarini "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan tasdiqlangan Ishchi guruhga taqdim etadi. Ishchi guruh baholash mezonlariga asoslanib korxonalarda g'olib bo'lgan loyihalarni o'rganib chiqadi va bir ovozdan eng dolzarb, foydali hamda muhimini tanlab, "Eng faol innovator ayol" ko'rik tanlovi g'olibi deb e'lon qiladi.

##### **Tanlov tashkil etish muddati ikki bosqichda:**

**I bosqich – yanvar oyida** tarmoq korxonalarida va Oliy ta'lim muassasalarida tegishliligi bo'yicha tuzilgan hakamlar hay'ati rahbarligida o'tkaziladi. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilar hujjatlarini ko'rib chiqish, tahlil qilish, ochiq ovoz berish, tegishli bayonnoma rasmiylashtirish orqali baholanadi.

**II bosqich – fevral oyida** "O'zkimyosanoat" AJ miqyosida tashkil etiladi. Bunda Ishchi guruh tarmoq korxonalaridagi va Oliy ta'lim muassasalaridagi g'oliblarning loyihalarini ko'rib chiqadi, tahlil qiladi, ochiq ovoz berish va tegishli bayonnoma rasmiylashtirish orqali baholaydi.

Mazkur Nizomga muvofiq Ishchi guruh tanlov ishtirokchilarining hujjatlarini baholash mezonini ishlab chiqadi, ushbu mezonlar asosida tanlovni tashkil etadi.



Tanlovning bosqichlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi korxonalar va Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanishi tavsiya etiladi.

Ishchi guruh a'zolari takliflariga binoan tanlovni o'tkazish muddati va joyiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

#### **Apellyatsiya berish tartibi.**

Apellyatsiya - bu tanlov ishtirokchisining tanlov bosqichlarining o'tishida olingan natijalarga rozi emasligi to'g'risidagi asoslantirilgan murojaati hisoblanadi.

**Tanlovning I bosqichida:** murojaat matni tanlov ishtirokchisi tomonidan uning natijalar bilan rozi emasligi sabablari ko'rsatilgan holda, shuningdek zarur tasdiqlovchi hujjatlar yoki ma'lumotlar ilova qilingan holda erkin shaklda tuziladi. Apellyatsiya arizasi tanlov ishtirokchisi tomonidan tanlov natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab **3 ish kuni ichida** Ishchi guruhga yuborilishi mumkin. Ishchi guruh yuborilgan apellyatsiyani o'rganib chiqib, uning natijasi bo'yicha ma'lumot beradi.

**Tanlovning II bosqichida:** apellyatsiya arizalari Ishchi guruh tomonidan yakuniy g'olib e'lon qilingan kunda boshlab **3 ish kuni ichida** Ishchi guruhga yuboriladi. Ishchi guruh apellyatsiya arizasini ro'yxatga oladi va ariza kelib tushgan boshlab 3 ish kuni davomida "O'zbekimiyosanoat" AJ rahbariyatiga taqdim etadi. Rahbariyat tomonidan arizani ko'rib chiqish uchun tegishli bo'lim va departament rahbarilaridan tashkil topgan komissiya tuziladi. Ushbu komissiya **5 ish kuni** davomida apellyatsiya arizasini ko'rib chiqadi va asoslangan qaror qabul qiladi.

### **V. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TOPSHIRISH LOZIM BO'LGAN HUJJATLAR**

Barcha bosqichlarda ishtirokchilar ro'yxati tanlov o'tkazilishidan kamida **ikki hafta** oldin yig'ilib, shakllantiriladi.

**Tanlov ishtirokchisi tashkiliy qo'mitaga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:**

- ishtirokchining ish faoliyatiga oid va erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi, tegishli tashkilot rahbari tomonidan imzolangan tavsifiy tavsiyanoma;
- pasport nusxasi;
- 2 ta (3,5x4,5) oq fondagi rangli fotosurat (elektron nusxasi bilan birga);
- qatnashchining manzili, uy va ish telefon raqamlari;

**qo'shimcha ravishda,** ijodiy, badiiy va ilmiy ishlarining nusxalari, yangi ishlanma va loyihalari, loyihani tatbiq qilish mexanizmi va uning samaradorligi haqida ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalarida o'z sohasiga oid mavzularda chop etilgan maqolalari (maqola korxonada ishlab turgan davrda yozilgan va tanlov kundan oldin chop etilgan bo'lishi lozim), ijtimoiy-siyosiy faolligi, ma'naviy yetukligi, jamoat ishlarida faol ishtiroki to'g'risidagi tavsiyalar taqdim etilishi mumkin.



Obyektiv xulosa qilish va ishtirokchiga xolisona baho berish maqsadida tegishli tarmoq korxonasi va Oliy ta'lim muassasalaridan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishi mumkin.

## **VI. TANLOV G'OLIBLARINI TAQDIRLASH VA RAG'BATLANTIRISH**

Tanlov g'oliblari **8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami** arafasida e'lon qilinadi va quyidagi tartibda taqdirlanadi:

1-o'rin – **30 (o'ttiz) million so'm** pul mukofoti bilan;

2-o'rin – **20 (yigirma) million so'm** pul mukofoti bilan;

3-o'rin – **10 (o'n) so'm** pul mukofoti bilan.

G'oliblar "O'zkiyosanoat" AJning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. G'oliblarni taqdirlash "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining 2025-yil biznes rejasida ko'zda tutilgan xarajatlari hamda Kasaba uyushmasi qo'mitasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Tanlovning I bosqichi g'oliblari Kasaba uyushmasi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, tanlovning barcha bosqichlarida qo'shimcha rag'batlantiruvchi sovg'alar berilishi mumkin.

"O'zkiyosanoat" AJ tomonidan tasdiqlangan Ishchi guruh tarkibidagi xodimlar tanlov yakuni bilan rag'batlantirilishi mumkin.

Tanlov g'oliblari bo'lgan xotin-qizlar korxonaning boshqaruv lavozimlari kadrlar zaxirasi tarkibiga kiritiladi.

Ular orasidan bo'shab qolgan boshqaruv lavozimlariga, belgilangan malaka talablari doirasida nomzod sifatida tavsiya qilinadi.

Talabalar g'oliblikni qo'lga kiritisa, "O'zkiyosanoat" AJ tizimiga ishga taklif qilinadi.

G'olib bo'lgan xotin-qizlarni tegishli tarkibiy bo'linmalarda reja asosida stajirovka o'tashlari tashkil etiladi.

## **VIII. XULOSA (YAKUNIY QISM)**

Tanlovning I bosqichi davomida mazkur Nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuz bersa, hakamlar hay'ati, II bosqichi davomida yuz bersa, Ishchi guruh tomonidan ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan hal etiladi.

Mazkur Nizomga qo'llanish davrida yuzaga keladigan holatlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bu haqda tanlov boshlangunga qadar barcha ishtirokchilar ogohlantirilishi kerak.



“O‘zkimyosanoat” AJning  
2024-yil 13.08 dagi  
115-son buyrug‘iga 2-ilova

**“Eng faol innovator ayol” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” AJ  
xodimlaridan tashkil topgan ishchi guruh tarkibi**

A.X.To‘xtayev	“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi o‘rinbosari – Ishchi guruh rahbari
S.M. Abduraxmanova	“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining maslahatchisi, Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari
<b>Ishchi guruh a‘zolari</b>	
R.I. Ayxodjayev	Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti boshlig‘i
R.A. Abduraxmanova	Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i
F. O. Namozov	Moliya, g‘aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti boshlig‘i
P. Sh. Mamutov	Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti boshlig‘i
O.R. Mirtemirov	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig‘i
B.B.Babayev	Bosh buxgalter
V.V. Aripov	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
A.R. Salomov	Mahalliyashtirish va sanoatda kooparetasiya aloqalarini kengaytirish boshlg‘i
O.N. Imomov	Innovatsiya va yangi texnologiyaslarni joriy etish bo‘limi boshlig‘i
G.N. Abdullayev	Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi

**Izoh:** Agar ishchi guruh a‘zolaridan biri boshqa ishga o‘tkazilsa, guruh tarkibida uning vazifasini bajaruvchi yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish yuklatilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.



**“Eng faol innovator ayol” tanlovini o‘tkazish  
bo‘yicha chora-tadbirlar  
REJASI**

№	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Ijrochi korxonalar va tashkilot	
			Asosiy ijrochi	Mas’ul ijrochi
1.	Namunaviy Nizom asosida “Eng faol innovator ayol” tanlovining baholash mezonlarini ishlab chiqish	Iyul 2024-yil	Imomov O.	Abduraxmanova S.
2.	Tanlovni tashkil etish	Yanvar 2025-yil	Tarmoq korxonalar va OTM rahbarlari	Abduraxmanova S.
	<b>1-bosqich</b> – korxonalar va OTMlarida <b>2-bosqich</b> – “O‘z kimyosanoat” AJ miqyosida	Fevral 2025-yil	Abduraxmanova S.	
3.	Tanlovning har bir bosqichida tanlov komissiyasi tuzilishini tashkil etish	Tanlov davomida	Abduraxmanova S.	Abduraxmanova S.
4.	Tanlovning har bir bosqichida hakamlar hay’atini shakllantirish	Tanlov davomida	Abduraxmanova S.	Abduraxmanova S.
5.	Tanlovning barcha bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha qaror, smetalar va boshqa tegishli me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda chora-tadbirlarni belgilash	Dekabr 2024-yil	Abduraxmanova S. Abduraxmanova R. Imomov O.	Abduraxmanova S.
6.	Tanlov o‘tkaziladigan obyektlarni tayyorlash, madaniy tadbir o‘tkazish uchun bezash ishlarini olib borish, ovoz kuchaytirish	Tanlov davomida	Ahmedov A. Xoshimov A.	Abduraxmanova S.



	moslamalari, elektr tarmog'i, aloqa vositalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash.			
7.	Tadbir o'tkaziladigan joyda turli kasb egalari faoliyatini aks ettiruvchi banner va ko'rgazmalarni tayyorlash	Tanlov davomida	Xoshimov A.	Abduraxmanova S.
8.	Tanlov g'oliblari uchun 1-, 2- va 3-o'rinlar bo'yicha diplomlar (ramka), esdalik sovg'alarni tashkil etish	Har bir bosqichda	Xoshimov A. Abdullayev G.	Abduraxmanova S.
9.	Tadbirlar jarayonida xavfsizlikni va tibbiy xizmatni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, tadbirlar bo'lib o'tadigan joylarda yong'in xavfsizligi choralari ko'rishni qat'iy nazoratga olish	Har bir bosqichda	Nazarov Sh. Xoshimov A.	Abduraxmanova S.
10.	Tanlov boshlanishi, tanlov jarayoni va uning yakunini ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb sahifalar orqali yoritish	Har bir bosqich yakunlanganidan keyin 3 kun muddatda	Eshbekov R.	Abduraxmanova S.



**“Eng faol innovator ayol”  
tanlovi ishtirokchisi**

**BAHOLASH VARAQASI**

Eng yuqori ball		100 ball			
№	Baholash mezon nomi	Baholar			Ballar miqdori*
		25 ball gacha	20 ball gacha	15 ball gacha	
1.	Mutaxassislik faoliyati bo'yicha tanlovga taqdim etilgan mualliflik ishlarining (mavzu, loyiha, patent, ixtiro va h.k.) dolzarbligi, asoslanganligi bo'yicha berilgan texnologik baho	to'liq asoslangan	qisman kamchiliklar mavjud	to'liq asoslanmagan	___ ball
2.	Tanlovga taqdim etilgan mualliflik ishlarining ishlab chiqarishga tatbiq etilishidan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorligi	100 mln. dan ortiq	50 mln. dan ortiq	10 mln. dan ortiq	___ ball
3.	Ishtirokchining mehnat faoliyati davomida korxonada texnologik jarayonlarni rivojlantirish borasidagi ratsionalizatorlik takliflari	a'lo darajada	yaxshi	o'rtacha	___ ball
		Baholar			
		5 ball gacha	4 ball gacha	3 ball gacha	
4.	Ishtirokchining korxonada faoliyat ko'rsatayotgan davrida davlat mukofotlari, faxriy yorliqlari va diplomlar bilan taqdirlanganligi	davlat mukofotlari	tarmoq miqyosida	korxonada miqyosida	___ ball
5.	Ishtirokchining huquqiy savodxonligi (kimyo sanoatiga)	a'lo darajada	yaxshi	o'rtacha	___ ball



	tegishli Prezident qarorlar, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini o'zlashtirganligi) darajasi				
6.	Ishtirokchining ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalari, intervyulari, tarmoq va davriy nashrlardagi ilmiy-ishlab chiqarish maqolalari	3 va undan ko'p	3 tagacha	chop etilmagan	___ ball
7.	Ishtirokchining chet tillarini bilishi	yaxshi	o'rtacha	lug'at yordamida	___ ball
8.	Ishtirokchining mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablari va qoidalariga rioya qilishi	talab darajasida	ogohlantirishlar mavjud	intizomiy choralar mavjud	___ ball
<b>Jami</b>					<b>100 ball</b>

Hakamlar hay'ati raisi: \_\_\_\_\_

F.I.O.

imzo

Hakamlar hay'ati a'zolari: \_\_\_\_\_

F.I.O.

imzo

F.I.O.

imzo

F.I.O.

imzo

F.I.O.

imzo

F.I.O.

imzo

\* *Izoh:* Baholash ishchi guruhlaridan tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida o'rganib chiqilgan holda amalga oshiriladi.